

**BRYUSSEL I REGLAMENTI: YAGONA YEVROPA
YURISDIKSIYASINING ASOSI SIFATIDA**

Ism familiya: Madaminova Madinabonu

Toshkent davlat transport universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs Yu-2a guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yevropa Ittifoqi Kengashining Bryussel I reglamenti va uning 2012-yilgi qayta tahriri (Brussels I Recast) tahlil etilgan. Bryussel I reglamentining qabul qilinishi, uning fuqarolik va tijorat ishlari bo'yicha yagona yurisdiksiya hamda sud qarorlarini tan olish va ijro etish masalalarini tartibga solishdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Recast reglamentidagi muhim yangiliklar, jumladan, ekzekvatura protsedurasining bekor qilinishi, yurisdiksiya tanlash kelishuvlariga oid yangi tartiblar hamda uchinchi davlatlar bilan bog'liq parallel sud jarayonlariga doir yangi mexanizmlar batafsil yoritilgan. Bryussel I reglamentining Yevropa Ittifoqi yagona huquqiy makonining shakllanishidagi ahamiyati ta'kidlangan va uning amaliy jihatlari yuzasidan xulosalar berilgan. Maqolada xalqaro-huquqiy va nazariy adabiyotlardan, shuningdek, Yevropa Ittifoqining normativ-huquqiy hujjatlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Bryussel I reglamenti, Brussels I Recast, Yevropa Ittifoqi, yurisdiksiya, ekzekvatura, yurisdiksiya tanlash kelishuvlari, yagona huquqiy hudud.

Аннотация: В статье анализируется Регламент Брюссель I Совета Европейского Союза и его переработанная версия 2012 года (переработанный Брюссель I). Указано принятие Регламента Брюссель I, его роль в регулировании вопросов единообразной подсудности по гражданским и торговым делам, признания и исполнения судебных решений. Подробно изложены важные нововведения в Переработанном регламенте, включая отмену процедуры экзекутуры, новые процедуры для соглашений о выборе юрисдикции и новые механизмы для параллельных разбирательств с третьими странами. Подчеркивается значение Регламента Брюссель I в формировании единого



правового пространства Европейского Союза и делаются выводы о его практических аспектах. В статье использованы международно-правовая и теоретическая литература, а также нормативные правовые акты Европейского Союза.

Ключевые слова: Регламент Брюссель I, Переработанный Брюссель I, Европейский Союз, юрисдикция, экзекватура, соглашения о выборе юрисдикции, единое правовое пространство.

Abstract: The article analyzes the Brussels I Regulation of the Council of the European Union and its 2012 recast (Brussels I Recast). It outlines the adoption of the Brussels I Regulation, its role in regulating issues of uniform jurisdiction in civil and commercial matters, recognition and enforcement of judgments. It sets out in detail the important innovations in the Recast Regulation, including the abolition of the exequatur procedure, new procedures for choice of jurisdiction agreements and new mechanisms for parallel proceedings with third countries. It emphasizes the importance of the Brussels I Regulation in the formation of the single legal space of the European Union and draws conclusions about its practical aspects. The article uses international legal and theoretical literature, as well as regulatory legal acts of the European Union.

Keywords: Brussels I Regulation, Brussels I Recast, European Union, jurisdiction, exequatur, choice of jurisdiction agreements, single legal space.

Tadqiqot metodlari: Mavzu doirasida tadqiqot olib borish uchun huquqiy-normativ, qiyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy, tizimli yondashuv, mantiqiy-deduktiv hamda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Huquqiy-normativ metod orqali Bryussel I reglamentining huquqiy mazmuni tahlil qilindi, qiyosiy-huquqiy metod yordamida reglamentning eski va yangi versiyalari solishtirildi. Tarixiy-huquqiy metod orqali reglamentning shakllanish bosqichlari ko'rib chiqildi. Tizimli yondashuv va mantiqiy-deduktiv metod reglamentning Yevropa Ittifoqi huquq tizimidagi o'rnini aniqlashga imkon berdi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali mavjud ilmiy yondashuvlar va nazariy qarashlar o'rganildi.

Tadqiqot natijalari. Yevropa Ittifoqida keyingi yigirma yil ichida fuqarolik protsessual huquqini integratsiyalash va unifikatsiya qilish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Xususan, transchegaraviy fuqarolik va tijorat nizolarini tartibga soluvchi yagona me‘yoriy baza shakllantirilib, bunda Bryussel I reglamenti muhim rol o‘ynadi. Bryussel I reglamenti deb mashhur bo‘lgan 2001-yil 22-dekabrda Kengashning 44/2001-sonli Reglamenti (EC) (“Fuqarolik va tijorat ishlarida sud yurisdiksiyasi hamda sud qarorlarini tan olish va ijro etish to‘g‘risida”) qabul qilinishi bilan, Yevropa Ittifoqida xalqaro xususiy huquqning “kommunitarizatsiyasi” yuz berdi. Ya‘ni, bu sohada normativ tartibga solishni YI darajasiga olib chiqish natijasida a‘zo davlatlar o‘zaro yoki uchinchi davlatlar bilan sud yurisdiksiyasi hamda sud hujjatlarini tan olish/ijro etishga doir alohida xalqaro bitimlar tuzish huquqidan mahrum bo‘ldilar. Shu tariqa Bryussel I reglamenti yagona Yevropa yurisdiksiyasining asosini yaratdi va Yevropa sudlararo hamkorligi sohasida YIning mutlaq vakolatini ta‘minladi.

Bryussel I (44/2001) va uning Recast (1215/2012) versiyalari. 44/2001-sonli reglament 2002-yildan boshlab Yevropa Ittifoqiga a‘zo barcha davlatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilib, 1968-yildagi Bryussel Konvensiyasining o‘rnini egalladi. O‘tgan vaqt davomida mazkur reglament transchegaraviy sud jarayonlarida samarali huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ldi. Biroq 2012-yilda Yevropa Parlamenti va Kengash Bryussel I reglamentining yangi tahririni – 1215/2012-sonli reglamentni (Brussels I Recast yoki “Bryussel I bis”) qabul qildi. Ushbu yangi tahrir 2015-yil 10-yanvardan e‘tiboran kuchga kirib, o‘sha sanadan keyin boshlangan ish yurituvlariga tatbiq etila boshladi. Bryussel I Recast oldingi 44/2001-sonli reglament o‘rnini egalladi va amalda uni to‘liq almashtirdi. Shu bilan birga, Recast versiya tuzilishi jihatdan avvalgi reglamentga o‘xshash bo‘lib, unda faqat ayrim muhim o‘zgartirish va yangiliklar kiritildi. Asosiy maqsad Yevropa huquqiy makonida yanada samarali, adolatli hamda integrallashgan sud jarayonini ta‘minlash edi.

Fuqarolik va tijorat ishlari bo‘yicha yurisdiksiya tartibi. Bryussel I reglamenti doirasida Yevropa Ittifoqida yagona yurisdiksiya qoidalari o‘rnatilgan bo‘lib, ularning asosida javobgarlikning doimiy yashash joyi prinsipi yotadi. Umumiy



qoida shuki, agar javobgar YI hududidagi davlatda doimiy yashasa, u odatda aynan o'sha davlat sudida javobgarlikka tortilishi kerak. Biroq reglamentda bu qoidaga bir qator istisno yurisdiksiya hollari belgilangan. Xususan, agar nizoli masala ma'lum bir davlat bilan yaqin aloqador bo'lsa, da'vogar ba'zi hollarda javobgar yashash joyidan tashqari joyda ham da'vo qo'zg'atishi mumkin. Masalan, shartnoma majburiyatlaridan kelib chiqadigan da'volar shartnoma bajarilishi lozim bo'lgan joyda, delikt xulq-atvor bilan bog'liq da'volar zarar yetkazilgan joyda ko'rib chiqilishi mumkin[5]. Shuningdek, agar bir nechta javobgar bo'lsa, ulardan birortasi yashaydigan davlat sudida ularning barchasiga birgalikda da'vo qo'zg'atishga ruxsat beriladi. Bryussel I reglamenti "fuqarolik va tijorat xarakteridagi ishlar" doirasini aniq belgilab bermagan, shu bois Sud hakamligi (arbitraj), bankrotlik, aliment va meros kabi sohalar undan mustasno. Shu bilan birga, "fuqarolik va tijorat masalalari" tushunchasiga imkon qadar keng talqin beriladi: ochiqchasiga jamoat-huquqiy xarakterga ega bo'lmagan barcha nizolar ushbu reglamentga bo'ysunadi.

Reglament Yevropa sudlari o'rtasida eksklyuziv yurisdiksiya masalalarini ham tartibga soladi. Ya'ni, ba'zi moddiy huquqiy sohalarida faqat aniq belgilangan davlat sudlari vakolatli bo'lishi qat'iy belgilangan. Misol uchun, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar va ijara shartnomalariga oid da'volar faqat mulk joylashgan davlat sudida, yuridik shaxslarning ta'sis hujjatlariga oid nizolar faqat o'sha yuridik shaxs ro'yxatdan o'tgan davlat sudida ko'riladi (Brussel I Recast, 24-modda)[2]. Bunday eksklyuziv yurisdiksiya qoidalari YI bo'ylab bir xil qo'llanib, oldindan aniq masalalarda sudlarning kompetensiyasi o'zaro to'qnashib ketmasligini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, Bryussel I umumiy qoidalari qatorida "zaif tomonlar" deb ataluvchi subyektlar manfaatini himoyalovchi maxsus yurisdiksiya normalarini ham o'z ichiga oladi. Fuqarolik ishlari protsessida odatda sug'urta qildiruvchilar, shartnoma iste'molchilari va mehnat shartnomasi bo'yicha ishchilar kabi tomonlar protsessual jihatdan zaifroq hisoblanadi. Bryussel I reglamentida aynan shu toifadagi shaxslar ishtirokidagi nizolar bo'yicha alohida bo'limlar mavjud bo'lib, ularda da'vo qayerda qo'zg'atilishi mumkinligi va yurisdiksiya tanlash kelishuvlarining haqiqiyliigi bo'yicha cheklovlar belgilangan. Masalan, iste'molchining doimiy yashash joyidan boshqa



joyda unga qarshi da'vo qo'zg'atish yoki oldindan tuzilgan kelishuv bilan umumiy qoidalarni chetlab o'tish qat'iyan cheklangan. Bryussel I Recast hatto sud amaliyotida "zaif tomon" bo'lgan javobgarga nizo boshlanganida o'z yurisdiksiyasiga e'tiroz bildirish huquqi mavjudligini va bu huquq haqida unga sud tomonidan albatta ma'lum qilinishi lozimligini ham mustahkamladi (Brussel I Recast, 26-modda 2-qism) [2]. Shu tarzda reglament barcha tomonlarning huquq va manfaatlarini muvozanatda himoya qiluvchi yondashuvni joriy etadi.

Bryussel I Recast reglamentining asosiy yangiliklari. 1215/2012-sonli yangi tahrir (Recast) oldingi reglament normalarini qayta ko'rib chiqib, Yevropa sudlov tizimini yaxshilashga qaratilgan bir qator muhim o'zgarishlar kiritdi. Avvalo, Recast versiya kuchga kirishi bilan ilgari amal qilgan ekzekvatura (Ispaniyada ijro varaqasi, lot. exsequor – bajaraman) tartibi butkul bekor qilindi. Ya'ni, endilikda bir a'zo davlat sudining qarorini boshqa a'zo davlatda ijro etilishi uchun avvalambor maxsus tarzda tan olish (ijro varaqasi olish) tartib-taomillaridan o'tish talab qilinmaydi[6]. Bunda 1215/2012-sonli reglamentning 39-moddasiga muvofiq, agar sud hujjati qaror chiqarilgan davlatda ijroga qodir bo'lsa, u avtomatik ravishda YI ning boshqa istalgan davlatida ham ijroga qodir hujjat sifatida e'tirof etiladi[2].

Bundan tashqari, Bryussel I Recast YI chegarasidan tashqaridagi davlatlar sudi bilan bog'liq parallel sud jarayonlarini inobatga olish imkonini beruvchi yangi qoidani ham joriy qildi. Reglamentning 33-34-moddalariga ko'ra, agar biror YI a'zosiga kirmaydigan mamlakat sudida ayni nizoga doir ish avval boshlanib, keyinchalik YI a'zosidagi sudga ham da'vo kiritilgan bo'lsa, Yevropa sudi ma'lum shartlar asosida o'z ishini to'xtatib turishi mumkin. Xususan, uchinchi davlat sudi hal qiluv qarori YI a'zosida tan olinishi va ijro etilishi ehtimoli mavjudligi hamda adolat manfaatlari hisobga olinadi. Ushbu moslashuvchan mexanizm avvalgi 44/2001-son reglamentda mavjud emas edi; yangi tartib esa xalqaro darajadagi nizolar borasida Yevropa sudlariga ko'proq diskretsiya huquqini berib, parallel jarayonlar o'rtasida ziddiyatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Yurisdiksiya tanlash erkinligi va eksklyuziv yurisdiksiya kelishuvlari. Xalqaro xususiy huquqda tomonlarning o'z nizolari qaysi yurisdiksiyada ko'rilishini



oldindan belgilab olish huquqi – muhim prinsiplardan biri. Bryussel I reglamenti ushbu yurisdiksiya tanlash erkinligini e'tirof etib, taraflar o'rtasidagi yozma yurisdiksiya kelishuvlariga (yoki shartnomalardagi “sud yurisdiksiyasi to'g'risidagi bandlar”ga) huquqiy kuch beradi. Ya'ni, agar fuqaro-huquqiy shartnoma tuzgan taraflar o'z kelishuvlarida muayyan davlat sudini nizolarni hal qiluvchi vakolatli sud sifatida belgilagan bo'lsalar, umumiy holatda aynan o'sha sud nizoni ko'rib chiqishga haqli va boshqa sudlar o'zlarini nojo'ya deb topishi kerak (agar Bryussel I'da nazarda tutilgan boshqa qoidalar bilan zid kelmasa)[3]. Bryussel I ning asl 2001-yilgi matnida (23-modda) bunday kelishuvlar kamida bir tomon YI hududida yashasa amal qilishi ko'zda tutilgan edi[1]. Bryussel I Recast esa ushbu cheklovni olib tashlab, agar tanlangan sud Yevropa Ittifoqida joylashgan bo'lsa, tomonlarning yurisdiksiya bitimi taraflar qayerda bo'lishidan qat'i nazar yaroqli bo'lishini belgiladi. Bu o'zgarish amaliyotda taraflar ixtiyorini to'la hurmat qilishga xizmat qiladi va kelishuvning amal qilishiga oldin to'sqinlik qilgan protsessual murakkabliklarni bartaraf etdi.

Yagona Yevropa huquqiy hududining shakllanishidagi ahamiyati.

Bryussel I reglamentining qabul qilinishi va amaliyotga joriy etilishi Yevropa integratsiyasining muhim bosqichlaridan biri bo'ldi. U birinchilardan bo'lib Yevropa Ittifoqi doirasida haqiqiy yagona sud-huquqiy makonning asosi sifatida xizmat qildi. Yuqorida qayd etilganidek, Bryussel I orqali YI a'zo davlatlari o'z fuqarolik protsessual suverenitetining bir qismidan voz kechib, o'zaro ishonch prinsipi asosida yagona qoidalarni qo'llashga o'tishdi. Bu esa Yevropa sud organlari o'rtasida yaqindan hamkorlik va o'zaro tan olish muhitini yaratdi. Bugungi kunda Bryussel I Recast yordamida Yevropa hududida qabul qilingan sud qarorlari deyarli avtomatik tarzda boshqa a'zo davlatlarda tan olinib, ijroga qo'yilmoqda – xuddi go'yo Yevropa Ittifoqi yagona yurisdiksiya singari faoliyat ko'rsatmoqda. Xususan, mazkur reglament Yevropa Ittifoqida “adolat va huquq erkinligi hududi”ni barpo etishda asosiy tamoyil bo'lgan o'zaro ishonch (mutual trust) konsepsiyasini amalda tatbiq etadi. Har bir a'zo davlat sudi boshqa a'zo mamlakat sudining qarorini hech bir qo'shimcha protsedurasiz qabul qiladi va ijro etadi – bu hol Yevropa integratsiyasining yuridik sohadagi yutuqlaridan biridir. Bryussel I reglamenti va uning Recast tahriri YI doirasida yagona



yurisdiksiya qoidalarini joriy etib, fuqarolik va tijorat sohasida chiqarilgan sud qarorlarining transchegaraviy ijrosini kafolatlamoqda. Natijada, yagona bozor sharoitida fuqarolar hamda korxonalar o'z huquq va manfaatlarini istalgan a'zo mamlakat sudida himoya qilishlari va o'sha qarorni boshqa davlatda ham xuddi shunday kuchga ega bo'lishini bilishadi. Bu esa Yevropa Ittifoqining iqtisodiy integratsiyasi va huquqiy davlat tamoyillarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bryussel I reglamenti, shubhasiz, yagona Yevropa yurisdiksiyasi va huquqiy hududining mustahkam poydevori bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Bryussel I reglamenti Yevropa Ittifoqi hududida yagona yurisdiksiyani shakllantirish va transchegaraviy nizolarni tartibga solishning muhim huquqiy asosi hisoblanadi. Uning 2001-yilgi asl versiyasi bilan boshlanib, 2012-yilgi Recast versiyasiga kelib rivojlangan tartibot, Yevropa Ittifoqi a'zo davlatlarida sud qarorlarining avtomatik tarzda tan olinishi va ijro etilishi imkonini berdi. Bryussel I Recast reglamentida kiritilgan yangi mexanizmlar, xususan, ekzekvatura tartibining bekor qilinishi va yurisdiksiya tanlash kelishuvlariga nisbatan qo'shimcha kafolatlar xalqaro xususiy huquq amaliyotida katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Mazkur reglament, o'z navbatida, Yevropa Ittifoqining yagona huquqiy hududi va iqtisodiy integratsiyasi rivojlanishida muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bryussel I reglamenti va uning qayta ko'rib chiqilgan versiyasi, shubhasiz, transchegaraviy sud-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda Yevropa Ittifoqining eng muhim normativ hujjatlaridan biri bo'lib qolmoqda.

REFERENCES:

1. Reglament (EC) № 44/2001. Fuqarolik va tijorat ishlarida sud yurisdiksiyasi hamda sud qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi Kengash Reglamenti, 22.12.2000 y. (Bryussel I). Official Journal L12, 16.01.2001.
2. Reglament (EU) № 1215/2012 (Brussels I Recast). 2012-yil 12-dekabrda qabul qilingan, 2015-yil 10-yanvardan kuchga kirgan fuqarolik va tijorat ishlarida sud yurisdiksiyasi hamda sud hujjatlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi Yevropa Parlamenti va Kengash Reglamenti (qayta tahrir). Official Journal L351, 20.12.2012.



3. Новотна М., Варга П. Режим международной ответственности за ядерный ущерб: соотношение с нормами регламентов Брюссель I и Рим II. Европейское право, 2015, № 4. – С. 98–101.
4. Dimitrov N. S. Регламенты Европейского союза в области признания и исполнения судебных решений по гражданским и коммерческим вопросам, принятые в государствах-членах ЕС (в Республике Болгария). Международное право, 2020, № 3. – С. 1–10.
5. Court jurisdiction under the Brussels I Regulation (recast): good in parts. Clifford Chance Briefing, 09.2014. – 5 p.
6. Palao Moreno G. The impact of Brussels I Recast on the effectiveness of choice-of-court agreements and parallel proceedings involving third States: A Spanish perspective // Anuario Español de Derecho Internacional Privado, Vol. XIV, 2014. – P. 249–270.